



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q., Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-178-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, hududlarni ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha tayyorlangan loyihalarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida**

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, paxta va g‘alladan qisqartirilayotgan yer maydonlarida bog‘dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavotchilik, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish sohasida eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, aholining keng qatlamlarini jalb qilish orqali ushbu yerdan samarali foydalanish tizimini yaratish evaziga tarmoqda qo‘sishga erishishga ilmiy asoslangan yondashuv va o‘rganishlarni inobatga olish taqozo etilmoqda.

Bugungi kunda aholining daromad topishga qaratilgan tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, aholiga agrar tarmoqda o‘z biznesini tashkil etishga ko‘maklashish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish va qishloq xo‘jaligini diversifikatsiyalash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 24 va 242-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PF-6243сон Farmonining 14-bandи, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги PQ-20-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijara berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”ги qarorlari qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman hududlarini ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi korxonasi yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha tayyorlangan loyihalarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishi belgilangan.

Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiya muhokamasiga tumanda dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha tumandagi tuman hokimligi zaxirasida turgan 61q-dala konturida joylashgan jami 5,6 hektar, shundan 5,6 hektar yaylov yer maydonini loyihalarini ko‘rib chiqish uchun kiritilmoqda.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman hududlarini ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish yuzasidan tayyorlangan loyihalar bo‘yicha takliflar ma’qullansin.

3. Tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman hududlarini ixtisoslashtirish, bo‘sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi korxonasi yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha tayyorlangan loyihalarini ko‘rib chiqish jadvali 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Po‘latov), tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Jo‘rayev), Kadastrlar palatasi tuman

filiali (E.Mengliyev)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minalash, mazkur qarorga muvofiq dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berishning ma’muriy reglamentiga qat’iy rioya qilish topshirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarining mazmun mohiyati, ahamiyatini, bunda kutiladigan ijobiy natijalar to‘g‘risida aholiga, ayniqsa “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”lari, ro‘yxatda turgan ehtiyojmand oilalarga, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minalash bo‘yicha katta imkoniyat mavjudligi haqida tushuntirish va targ‘ibot ishlarni amalga oshirish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (G.Jumayeva), “Angor Yog‘dusi” tuman gazetasi tahririyatiga tumanda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuman hududlarini ixtisoslashtirish, bo‘s sh turgan, zaxiradagi va kelgusida zaxiraga olinadigan yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi korxonasi yoki dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha tayyorlangan loyihalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaroring ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Xudoyberdiyev hamda tuman hokimining o‘rribosari J.Po‘latovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining  
 2023-yil 13-sentabrdagi  
 VI-65-178-8-109-K/23-son qaroriga  
 1-ilova

<b>Tuman hokimligi zaxirasidagi hisobga olinadigan va davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan bo'sh turgan qishloq xo'jaligi yer maydonlari</b>																	
Hudud nomi	Yo'naliishi	Kontur raqami	Umumiyl yer maydoni	Shu jumladan													
				Ekin yer			Ko'p yillik daraxtzorlar						Shu jumladan				
				jamii	shu jumladan			shu jumladan						Bo'z yerlar	pichanzorlar	yaylov yerlar	
<b>M.Azizov hududi</b>																	
Hudud jami		61q	5.6											5.6			
<b>Hudud jami</b>		<b>1</b>	<b>5,60</b>											<b>5,60</b>			